



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-sentabr

VII-14-106-7-96-K/25

Kattaqo‘rg‘on tumani

Kattaqo‘rg‘on tumani Adliya bo‘limining 2025-yilning I-yarim yillik davomida norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axboroti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5415-sonli Farmoni va 2018-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3666-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i B. Baymuradovning axborotini muhokama qilib, Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq VII chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining o‘n to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo‘rg‘on tumani Adliya bo‘limining 2025-yilning I-yarim yillik davomida norma ijodkorligi faoliyati va huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman adliya bo‘limi (B.Boymurodov)ga:

- tumandagi davlat organlari va tashkilotlari bilan birgalikda yangi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati yuzasidan targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish;

- mahallalarda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish, aholiga huquqiy axborotlarni, shu jumladan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini yetkazish;

- inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, o‘z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishni samarali tashkil etishda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari bilan doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

- huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish va tahlil qilish, uning barqarorligi va bir xilligini ta'minlash hamda korxona va tashkilotlarda qonunbuzilishi holatlarini oldini olish borasida targ'ibot ishlarini olib borish;

- davlat organlari va tashkilotlar tomonidan huquqiy targ'ibot va ma'rifat bo'yicha olib borilgan ishlarni o'rganish, shuningdek, ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;

- tumanda barcha sohalar bo'yicha norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha fuqarolarning murojaatlariga e'tibor qaratish va qonuniy hal etilishiga ko'maklashish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va kiritilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish bo'yicha ochiq muloqotlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar, davra suhbatlari va huquqiy targ'ibot ishlari ko'lamini kengaytirish;

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq hududiy tuzilmada korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko'rish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini va qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ularning sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf etish tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi muharriri (O'.Usmonov)ga fuqarolarni huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida o'tkazilgan o'quv seminarlar, targ'ibot tadbirlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalar bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev) hamda tuman adliya bo'limi (B.Boymurodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH